



TAHLILI

Maxkamov Roxmonjon To‘lqinovich

Oriental universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: B. Begmatova

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Al-Ajrumiyya asarida arab tili nazariyasining ifodalanish xususiyatlari strukturaviy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi asarda grammatik kategoriyalarning ierarxik joylashuvi, i‘rob tizimining nazariy funksiyasi hamda omil tushunchasining boshqaruv mexanizmi sifatidagi rolini aniqlashdan iborat. Tadqiqot tavsifiy, strukturaviy va terminologik metodlar asosida olib borildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, asarda so‘z turkumlari ontologik asosni tashkil etadi, i‘rob sintaktik funksiyaning formal indikator sifatida namoyon bo‘ladi, omil esa grammatik boshqaruvni ta‘minlaydi. Xulosa sifatida “Ajrumiyya”ni faqat boshlang‘ich qo‘llanma emas, balki arab nahvining ixchamlashtirilgan nazariy modeli sifatida baholash mumkinligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Ajrumiyya, arab nahvi, i‘rob, omil, grammatik model, strukturaviy tahlil, so‘z turkumlari, sintaktik funksiya, nazariy grammatika.*

STRUCTURAL ANALYSIS OF THE THEORETICAL MODEL OF THE ARABIC LANGUAGE IN “AL-AJURUMIYYA”

Maxkamov Roxmonjon To‘lqinovich

Master’s Student, Oriental University

Scientific Supervisor: B. Begmatova

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical representation of Arabic grammar in Al-Ajrumiyya through a structural approach. The study aims to identify the hierarchical organization of grammatical categories, the theoretical function of i‘rāb, and the role of the governing element (‘āmil) as a mechanism of grammatical control. The research employs descriptive, structural, and terminological methods. The findings demonstrate that parts of speech constitute the ontological foundation of the system, i‘rāb functions as a formal indicator of syntactic roles, and the concept of ‘āmil ensures grammatical governance. The study concludes that “Al-Ajrumiyya” should be regarded not merely as an elementary manual but as a condensed theoretical model of Arabic grammar.

Keywords: *Al-Ajrumiyya, Arabic grammar, i‘rab, amil, grammatical model, structural analysis, parts of speech, syntactic function, theoretical linguistics.*

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «АЛЬ-АДЖРУМИЙЯ»

Максамов Рохмонжон Толкинович

магистрант Oriental университета

Научный руководитель: Б. Бегматова

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется отражение теории арабского языка в труде Al-Ajrumiyya на основе структурного подхода. Цель исследования заключается в выявлении иерархической организации грамматических категорий, теоретической функции и‘раба и роли категории ‘амил как механизма грамматического управления. В работе применены описательный, структурный и терминологический методы анализа. Результаты показывают, что части речи образуют онтологическую основу системы, и‘раб выступает формальным показателем синтаксической функции, а ‘амил обеспечивает грамматическое управление.



Делается вывод о том, что «Аль-Аджрумия» представляет собой не только учебное пособие, но и сжатую теоретическую модель арабской грамматики.

Ключевые слова: *Аль-Аджрумия, арабская грамматика, иъраб, ъамиль, грамматическая модель, структурный анализ, части речи, синтаксическая функция, теоретическая лингвистика.*

KIRISH

Arab nahv ilmi asrlar davomida shakllangan va mukammallashgan grammatik tizim sifatida nafaqat amaliy til o'rgatish vositasi, balki nazariy tafakkur mahsuli sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Klassik nahv manbalari orasida Al-Ajrumiyya alohida o'rin egallaydi. Ushbu asar ko'pincha boshlang'ich darajadagi darslik sifatida baholanadi. Biroq uning ichki tuzilishi, kategoriyalarni joylashtirish tamoyili va terminologik izchilligi mazkur matni faqat pedagogik qo'llanma sifatida emas, balki nazariy model sifatida ham o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Maqolada ko'tarilgan muammo shundan iboratki, "Ajrumiyya" asari asosan ta'limiy manba sifatida talqin qilinib kelinmoqda, uning nazariy-strukturaviy arxitekturasi esa yetarli darajada mustaqil lingvistik tahlil obyekti sifatida o'rganilmagan. Holbuki, asarda so'z turkumlari tasnifi, i'rob tizimi va omil tushunchasi o'zaro bog'liq va qat'iy ierarxik tartib asosida bayon qilingan. Bu esa asarni ixchamlashtirilgan nazariy konstruktsiya sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Mazkur masalaning tanlanish sababi klassik nahv merosini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida qayta talqin qilish ehtiyojidir. Arab grammatik tafakkuri ko'p hollarda tarixiy yoki sharhiy yo'nalishda o'rganilgan bo'lsa-da, uning ichki strukturaviy mexanizmini aniqlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, i'rob va omil kategoriyalarining formal hamda funksional jihatdan qanday integratsiyalashgani ilmiy tahlilni talab qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, arab tilshunosligida nazariy model masalasi ko'proq yirik va murakkab asarlar misolida tadqiq qilingan. "Ajrumiyya" kabi ixcham matnning nazariy yadrosini aniqlash esa nahv tizimining konsolidatsiyalangan shaklini ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa klassik grammatik tafakkurning metodologik bosqichlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda "Ajrumiyya" asari strukturaviy model sifatida tahlil qilinadi. Asarda grammatik kategoriyalarning ontologik, funksional va formal qatlamlari ajratib ko'rsatiladi hamda so'z turi — vazifa — i'rob — omil zanjiri yagona nazariy konstruktsiya sifatida talqin qilinadi. Shu orqali mazkur asarning faqat ta'limiy emas, balki ixchamlashtirilgan nazariy grammatika modeli ekani asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab nahv ilmi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan tarixiy, sharhiy va maktablararo qiyosiy yo'nalishda rivojlangan. Klassik manbalar orasida Al-Kitab (muallifi: Sibawayh) arab grammatik tafakkurining dastlabki va eng muhim nazariy asosini yaratgan asar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu manbada grammatik hodisalar keng qamrovli va chuqur mantiqiy tahlil asosida bayon qilingan. Keyingi davrlarda Ibn al-Hajibning Al-Kafiya hamda Ibn Hisham al-Ansarining Mughni al-Labib asarlari nahv nazariyasini yanada murakkab va tizimli shaklda rivojlantirgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda klassik nahv ko'proq tarixiy evolyutsiya yoki maktablararo farqlar nuqtai nazaridan o'rganilgan. Xususan, Muhammad al-Tantawi va Shawqi Dayf kabi olimlar arab tilshunosligi tarixini davrlashtirish va nazariy yo'nalishlarini aniqlashga e'tibor qaratgan. Bu tadqiqotlarda nahvning shakllanish bosqichlari, Basra va Kufa maktablarining metodologik farqlari keng yoritilgan.

Biroq Al-Ajrumiyya asari ko'pincha pedagogik manba sifatida ko'rib chiqilgan. Unga yozilgan ko'plab sharhlar asosan matni izohlash va kengaytirishga qaratilgan bo'lib, uning ichki nazariy arxitekturasini mustaqil model sifatida tahlil qilishga yetarli darajada e'tibor berilmagan.



Sharhchilik an'anasi asarning ta'limiy ahamiyatini mustahkamladi, biroq uning strukturaviy konsepsiyasi alohida tadqiqot obyekti sifatida kam o'rganildi.

So'nggi yillarda strukturaviy lingvistika va formal grammatika nazariyalari rivojlanishi bilan klassik grammatik merosni qayta talqin qilish tendensiyasi kuchaydi. Ayrim tadqiqotchilar i'robni formal indikator, omilni esa boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilishga uringan. Biroq bu yondashuvlar ko'proq umumiy nazariy muhokamalar doirasida qolgan va "Ajrumiyya"ning ichki tizimini kompleks tahlil qilish darajasiga yetmagan.

Shu bois mazkur maqolada "Ajrumiyya" asari mavjud adabiyotlardan farqli ravishda strukturaviy model sifatida ko'rib chiqiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, klassik nahv manbalari keng qamrovli nazariy tafsilotlarga ega bo'lsa-da, ixcham matn shaklida konsolidatsiyalangan modelni aniqlash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada tadqiqot klassik arab nahv manbalarini strukturaviy-lingvistik yondashuv asosida tahlil qilish metodologiyasiga tayandi. Tadqiqot obyekti sifatida Al-Ajrumiyya matni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa asarda arab tili nazariyasining ifodalanish shakli, grammatik kategoriyalarning ierarxik joylashuvi hamda i'rob va omil tushunchalarining funksional mexanizmi hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Birinchidan, tavsifiy metod qo'llanildi. Ushbu metod yordamida asarda bayon qilingan grammatik kategoriyalar, ularning ta'riflari va o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi. So'z turkumlari, i'rob shakllari va omil tushunchasi izchil ravishda tavsiflandi.

Ikkinchidan, strukturaviy tahlil metodi asosiy metod sifatida qo'llanildi. Bu metod orqali asarning ichki nazariy arxitekturasi, ya'ni so'z turi — sintaktik vazifa — i'rob — omil o'rtasidagi sabab–natija munosabatlari aniqlashtirildi. Grammatik birliklar o'zaro bog'langan tizim elementi sifatida talqin qilindi.

Uchinchidan, terminologik analiz amalga oshirildi. "Kalima", "i'rob", "raf", "nasb", "jar", "jazzm", "omil" kabi tayanch tushunchalarning mazmun doirasi va funksional yuklamasi aniqlashtirildi. Terminlarning matn ichidagi qo'llanish chastotasi va semantik aniqligi tahlil qilindi.

To'rtinchidan, mantiqiy-model tahlili qo'llanildi. Ushbu metod yordamida asarda grammatik hodisalarning bayon etilish ketma-ketligi va ierarxik tartibi o'rganildi. Umumiy qoida, uning turlari va istisnolar berilish mexanizmi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida matnni kontekstual tahlil qilish tamoyili ham qo'llanildi. Asardagi grammatik kategoriyalar klassik nahv an'analari doirasida ko'rib chiqildi va dissertatsiya materiallari bilan qiyosiy asosda o'rganildi.

Mazkur metodologik yondashuv "Ajrumiyya"ni faqat sharhiy emas, balki strukturaviy-nazariy model sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Natijada asarning ichki grammatik arxitekturasi va uning nazariy ixchamlashtirish tamoyillari aniqlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Al-Ajrumiyya asari grammatik qoidalar to'plami sifatida emas, balki ichki ierarxik tuzilishga ega nazariy model sifatida qurilgan. Asarda nazariy bayon "kalima" tushunchasidan boshlanadi va so'z uch turga — ism, fe'l va harfga ajratiladi. Ushbu tasnif grammatik tizimning ontologik asosini tashkil etadi. Keyingi barcha kategoriyalar aynan shu uchlikdan kelib chiqadi.

Tahlil jarayonida quyidagi strukturaviy zanjir aniqlashtirildi: so'z turi sintaktik vazifani belgilaydi, vazifa i'rob orqali ifodalanadi, i'rob esa omil ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bu sabab–



natija ketma-ketligi asarning nazariy konstruksiyasini tashkil etadi. Demak, grammatik hodisalar tasodifiy emas, balki o‘zaro bog‘langan elementlar tizimi sifatida talqin qilingan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, i‘rob asarda markaziy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Raf, nasb, jar va jazm shakllari sintaktik rolni aniqlaydi. I‘rob alomatlari harakatli va harfli shakllarga ajratiladi. Lafziy va taqdiriy i‘rob farqlanishi fonetik cheklovlar bilan grammatik zarurat o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Bu holat i‘robni faqat morfologik o‘zgarish emas, balki sintaktik funksiyaning formal indikatori sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Omil tushunchasi grammatik boshqaruv mexanizmining asosini tashkil etadi. Nasb va jazm qiluvchi birliklar muzore‘ fe‘l shakliga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Muzore‘ fe‘lning shakliy o‘zgarishi sintaktik muhitga bog‘liq holda yuzaga keladi. Bu esa boshqaruv va bo‘ysunuv munosabatini aniq ko‘rsatadi. Omil kategoriyasi orqali grammatik tizim ichki dinamik mexanizmga ega ekanligi namoyon bo‘ladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, asarda ierarxik tartib qat‘iy saqlanadi. Avval umumiy qoida beriladi, keyin uning turlari, so‘ng istisnolar keltiriladi. Mufrad, tasniya va jam‘ shakllari formal mezon asosida tizimlashtiriladi. G‘oyri munsarif birliklar umumiy model doirasida cheklangan istisno sifatida izohlanadi. Bu yondashuv markaziy nazariy yadroni saqlaydi va periferik holatlarni tizimdan tashqariga chiqarmaydi.

Olingan natijalar “Ajrumiyya”ni faqat boshlang‘ich qo‘llanma sifatida emas, balki arab nahvining ixchamlashtirilgan nazariy modeli sifatida baholash mumkinligini ko‘rsatadi. Asarda so‘z turkumlari ontologik asosni tashkil etadi, sintaktik vazifalar funksional qatlamni hosil qiladi, i‘rob formal indikator vazifasini bajaradi, omil esa boshqaruv mexanizmini ta‘minlaydi. Ushbu elementlarning o‘zaro integratsiyasi nahvni mexanik qoidalar majmuasidan ko‘ra, ichki arxitekturaga ega tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari klassik arab grammatik tafakkurida nazariy ixchamlashtirish bosqichi mavjudligini ko‘rsatadi. “Ajrumiyya” ana shu bosqichning namunasidir va u arab tili nazariyasining konsolidatsiyalangan, tizimli va strukturaviy modelini ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari Al-Ajrumiyya asari arab nahvining faqat boshlang‘ich o‘quv qo‘llanmasi emas, balki ichki ierarxik tuzilishga ega ixchamlashtirilgan nazariy modeli ekanini ko‘rsatdi. Asarda grammatik kategoriyalar qat‘iy mantiqiy ketma-ketlik asosida joylashtirilgan. So‘z turkumlari ontologik asosni tashkil etadi, sintaktik vazifalar funksional qatlamni hosil qiladi, i‘rob formal indikator vazifasini bajaradi, omil esa grammatik boshqaruv mexanizmini ta‘minlaydi. Ushbu elementlarning o‘zaro bog‘liqligi sabab–natija zanjiri asosida qurilgan yagona strukturaviy modelni yuzaga keltiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, i‘rob kategoriyasi morfologik o‘zgarish sifatida emas, balki sintaktik funksiyaning tashqi ko‘rsatkichi sifatida ishlaydi. Omil tushunchasi esa grammatik tizimning dinamik mexanizmini ifodalaydi. Bu jihatlar asarni klassik nahv tafakkurining nazariy ixchamlashtirish bosqichi mahsuli sifatida baholash imkonini beradi. Demak, “Ajrumiyya” arab tili nazariyasining konsolidatsiyalangan va tizimlashtirilgan shaklini namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, “Ajrumiyya”ni strukturaviy grammatika nuqtai nazaridan boshqa klassik nahv manbalari bilan qiyosiy asosda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, i‘rob va omil kategoriyalarini zamonaviy formal va generativ grammatika konsepsiyalari bilan taqqoslash arab grammatik tafakkurining nazariy salohiyatini yanada chuqurroq ochib berishi mumkin. Uchinchidan, nahv merosini o‘rganishda pedagogik yondashuv bilan bir qatorda nazariy-model tahlilini ham keng qo‘llash zarur.



Mazkur maqola “Ajrumiyya”ni arab nahvining ixchamlashtirilgan nazariy modeli sifatida talqin qilish mumkinligini ilmiy asosda ko‘rsatdi hamda klassik grammatik merosni zamonaviy lingvistik metodologiya asosida qayta tadqiq etish zarurligini ta’kidladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ibn Ajrum. *Al-Ajrumiyya*. – Qohira: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 2005. – 64 b.
2. Sibawayh. *Al-Kitab*. – Bayrut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1988. – 2 jild, 540 b.
3. Ibn al-Hajib. *Al-Kafiya fi ‘Ilm an-Nahw*. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1999. – 312 b.
4. Ibn Hisham al-Ansari. *Mughni al-Labib ‘an Kutub al-A‘arib*. – Bayrut: Dar al-Fikr, 2001. – 2 jild, 680 b.
5. Shawqi Dayf. *Al-Madaris an-Nahwiyya*. – Qohira: Dar al-Ma‘arif, 1968. – 286 b.
6. Muhammad al-Tantawi. *Nash’at an-Nahw wa Tarikh Ashhar an-Nuhat*. – Qohira: Maktabat al-Khanji, 1995. – 248 b.
7. Madumarov M.M. TADQIQOT ISHINI TASHKIL ETISH: IMRAD FORMATI. Qo‘qon universiteti ilmiy axborotnomasi, Qo‘qon, 2023. – №4. – B. 799–802.
8. Begmatova B. ARAB NAHV NAZARIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019. – 214 b.
9. Rahmonjon M.T. “Ajrumiyya” ASARIDA ARAB TILI NAZARIYASINING IFODALANISHI. Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: Oriental universiteti, 2026. – 120 b.